

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA O'ZBEK TILINI TINGLASH VA TURLI INTERAKTIV USULLAR ORQALI O'RGATISH

A. Ergasheva

Toshkent Davlat O'zbek tili va Adabiyot Universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni imkoniyatiga qarab to'g'ri metodni qo'llash, o'zbek tilini o'qitishda nutq faoliyatini oshirishning to'rt mezonidan foydalanish. Gapirish, o'qish nutqni tinglab tushunish va yozma nutqdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarining o'ziga xos jihatlari ko'rsatilgan

Аннотация: В данной статье детям следует использовать правильный метод в зависимости от их способностей, используя четыре критерия повышения речевой активности при обучении узбекскому.

Kalit so'zlar: Metod, ko'nikma, qo'llanma, brayl, didaktika, o'qituvchi, o'qitish, ko'rish, imkoniyati cheklangan, ko'rlik, tadqiqot, skayner, audio.

Ключевые слова: Метод, навык, пособие, шрифт Брайля, дидактика, учитель, слабовидящий, исследование, сканер, аудио.

Ne'matlarning eng yaxshilaridan biri dunyoni ko'ra olish va uni idrok qilishdir. Yaratganning marhamati ila yorug' dunyoning mehmonlari bo'lganmiz va alloh taolo tomonidan bizga tuhfa etgan barcha ne'matlardan bahramand bo'la olishimizning o'zi bir baxtdir. Shunday insonlar borki, bu tuhfa olamning serjilo go'zalliklarini moviy osmon bepoyon zamin uzra mavjlanayotgan jo'shqin hayotning tarovatini ko'zlari bilan emas, balki qalbi bilan his etish orqali anglaydiganlar, zero qalb ko'zi Alloh yaratgan barcha narsalarning botiniy idrok etadigan mardum gavharidir.

Bilamizki, bugungi kunda til o'rganish va til o'rgatish bo'yicha turli tadqiqotlar va ishlanmalar yaratilgan Bolalarga til o'rgatishni samaradorligini oshirish maqsadida turli metodlardan foydalanadi. Bu yondashuv jismonan sog'lom bolalar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga birdek yordam berib kelmoqda. Faqatgina biz bu metodlarni o'z o'rnida to'g'ri tadbir qilishimiz kerak. Aynan bu metodlar darsni yaxshi o'zlashtirishga va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishida lozim. Shu o'rinda rusiyabon va boshqa tilda so'zlaydigan bolalarga o'zbek tilini o'qitish va nutqiy faoliyatni oshirishda to'rt mezonidan foydalaniladi. Bular gapirish, o'qish, nutqni tinglab tushunish va yozma nutqdir. Ayni damda bu to'rtala turdan gapirish va nutqni tinglab tushunish ko'rish imkoniyati cheklangan va ko'rish imkoniyati zaif bolalarga ancha samaralidir. Imkoniyati cheklangan bolalarda dars soatlarini me'yorlashtirish va dars salohiyatini oshirish alohida o'qitish va o'rgatish

metodlari, alohida muhit va individual yondashuv talab qilindi. Ta'lim olish jarayoniga kelsak, ko'rish imkoniyati cheklangan bolalar ikki kategoriyalar ajratish mumkin. Bular ko'rish imkoniyati past ya'ni ma'lum darajada cheklanganlik ko'rlik ya'ni ko'rish imkoniyati mutloq cheklangan bo'lishida mumkin.

Shu o'rinda bunday o'quvchilar bilan ishlayotgan o'qituvchilardan juda kuchli mas'uliyat talab qilinadi. Avvalo, o'quvchilarga sinfxonani tanishtirishda va o'zi kelganligini ma'lum bir vositalar, qo'ngiroqlar turli tovushlar bilan bildirgani ma'qul. Dars mobaynida o'qituvchi bolalarning imkoniyatiga qarab turli didaktik o'yinlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Avvalambor, didaktika atamasiga etibor qaratamiz:

Didaktika bu qadimgi yunoncha didaktikos—„o'rgatuvchi“, „ta'lim beruvchi“—Pedagogikaning tarmog'i, ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. Didaktika atamasi ilk bor yevropada XVII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llana boshlagan. O'rganish natijasida didaktik o'yinlardan foydalanishni samarador usul ekanligi xulosalanadi. Yuqorida keltirganimizdek ko'zi ojiz bolalarga turli usullardan foydalanishi dars o'tish maqsadga muvofiq. Bu usullardan bir nechtasini sanab o'tamiz¹⁴. Bular

- Qarsak usulida
- Takdil o'rgatish usulida
- Darsni ovozli yozish olish
- Darsni audio eshittirish
- Aqli skanerlar
- O'qib beruvchi dasturlardir

.Aynan bulardan ko'zi ojiz bolalarga aqlli skaynerlar va o'qib beruvchilardan foydalanish qulay usul bo'lib kelmoqda. Bu dasturlar kitob va qo'llanmalarni osongina og'zaki nutqda o'qib beradi. Bu texnologiyalardan foydalanishdan maqsad hamma kerakli ma'lumotlar kitoblarni brayl yozuvida topish qiyin. Shu o'rinda oddiy qog'ozga yozilgan kitob va hujjatlarga osongina o'qitishda yordam beradi. Internat maktablarda o'qiydigan o'quvchi va sinfxonalarni maktab tomonidan ta'minlanishi zarur. Kuzatishlar orqali shunga amin bo'ldikki jismonan sog'lom bolalarga qaraganda imkoniyati cheklangan bolalarning o'qish va yozish tezligi bir muncha sekin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Negaki har taraflama sog'lom bolalarning darsliklarida aynan matematikani oladigan bo'lsak, bitta kitobdan iborat va

¹⁴ Azizova.D Chet tilini imkoniyati cheklangan bolalarga o'rgatish Azizova.D Chet tilini imkoniyati cheklangan bolalarga o'rgatish

bir masala yuzasidan qaralganida bitta sahifaga sig'diriladi, lekin ko'zi ojiz bolalar darsligi 10ta kitobdan iborat va bittadan misol 3-5 betga to'g'ri keladi. Aynan yozuv jarayoniga kelsak, ko'zi ojiz bolalarning yozishi sog'lom bolalarga nisbatan 3-4 barobar, o'qish esa 2-3 barobar sekinroq ekani kuzatildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarga noan'anaviy usulda ta'lim berish va til o'rgatish ularning jamiyatda o'z o'rnini topib ketishi, kasb tanlash va o'z ustida ishlashga katta poydevor bo'ladi deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabinternatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.04.2022 yildagi PQ-209-son Kuchga kirish sanasi 19.04.2022

2. His-tuyg'ular orqali ko'rish. Gazeta.uz

3. S. Tangriyeva maqolasi. Ko'zi ojiz bolalarni o'qitish metodekasi zamonaviy texnologiyalar.